



## BUXORO VOHASINING AMIR TEMUR DAVLATI VUJUDGA KELISHI JARAYONIDAGI O‘RNI VA KEYINGI DAVRLARDAGI AHAMIYATI

*Altiboyev Yu.E.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

**Tayanch so‘zlar:** qarshi janggi, mo‘g‘ullar istilosi, vayronagarchilik, siyosiy faoliyat, manbalar tahlili.

**Ключевые слова:** война сопротивления, монгольское нашествие, разрушения, политическая деятельность, анализ источников.

**Key words:** war of resistance, mongol invasion, destruction, political activity, analysis of sources.

Buxoro barcha tarixiy davrlarda muhim siyosiy-ijtimoiy va madaniy jarayonlar markazida turgan shaharlardan biri sifatida ma’lum. Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganishda Buxoroning o‘mi va roli beqiyos ahamiyatga egadir. Tarixiy adabiyotlardagi ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsadiki, mo‘g‘ullar istilosi va hukmronligi davrida Buxoro shahri bir necha marotaba vayrona ahvolga kelgan bo‘lib, Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgunga qadar Buxoroning so‘nggi bor vayron etilishi 1316-yilda qayd qilinganligining guvohi bo‘linadi [3, 57]. Mo‘g‘ullar davrida bir necha bor vayron etilsa-da, Buxoro shahri hamisha karvon yo‘llari markazida ekanligi va aholisining mashaqqatli mehnati evaziga Movarounnahrning savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik sohalari rivojlangan, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan markaziy shaharlaridan biri bo‘lib qolavergan.

Amir Temurning siyosiy faoliyati boshlanishidan to vafotiga qadar bo‘lgan davrga oid ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsadiki, sohibqiron Buxoroga alohida hurmat bilan qaraganligi bilan bog‘liq ma’lumotlar barcha o‘sha davr adabiyotlarida keltirib o‘tiladi. Bunga asos sifatida Amir Temurning onasi Tegina Begim Moh asli Buxorodan bo‘lganligi, uning otasi o‘z zamonasining obro‘li va ruhoniy-dindor kishilaridan bo‘lgan Ubaydullo ibn Mahmud al-Mahbubiy

ekanligi keltirib o‘tiladi [12, 3]. Shu bois Buxoroga Amir Temurning ehtiromi bo‘lakcha bo‘lgan deyishga to‘la asoslar mavjud.

Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelish jarayonida o‘zaro kurashlarda Buxoro bir necha bora tilga olinadi. Masalan, Amir Temurning Ilyosxo‘jadan ajralib Buxoro tomonlarga ketishiga, Ilyosxo‘janing zolimlarcha boshqaruvi sabab bo‘lganligi qayd etilgan [6, 107]. Amir Temurning hokimiyat uchun kurash boshlashi jarayonlarining dastlabki bosqichidayoq u tutgan siyosatni Buxoro aholisi qo‘llaganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, M.Ivanin ma‘lumotlarida Amir Kulolning Ilyosxo‘jadan qochib kelgan Amir Temurga bexavotirroq bo‘lgan Xorazm cho‘llariga ketishni maslahat berganligi keltirib o‘tilgan [4, 117]. Buxoro hamisha Amir Temurga nisbatan moyil bo‘lsa-da, hali Ilyosxo‘ja (mo‘g‘ullar) hukumronligi kuchli ekanligidan dalolat beradi. H.Vamberi Amir Temurning Ilyosxo‘ja bilan janjallashib, Buxoroga, so‘ng cho‘lga chiqib ketishini, “Buxoro va Xiva mamlakatlari orasidagi Hazar dengizigacha cho‘zilgan cho‘lga yo‘naldi”, – tarzida keltirib o‘tadi [2, 31]. Sharafiddin Ali Yazdiy ma‘lumotlarida, Ilyosxo‘jadan mag‘lub bo‘lgan Amir Temur va Husaynlar chekingach, Amir Temur xotinini Buxorzindon deb nomlangan Buxoro viloyatiga qarashli kent (qishloq)ga yashirganligi keltirib o‘tiladi [5, 28]. Bu Amir Temurning siyosiy faoliyatida Buxoro alohida o‘rin tutganligidan dalolat beradi.

Mo‘g‘ullar ta‘qibidan qochib yurgan kezlari Amir Temurning Moxonda Alibek zindoniga tushib qolishi va bu yerdan qutilishi xususida turli-tuman ma‘lumotlar mavjud. Tutqunlikdan qutilib chiqqanidan so‘ng, Amir Temurning Buxoro tomonga yo‘l olishi, bu yerda uni qo‘llab-quvvatlovchilar yetarlicha topilishidan dalolat beradi. Shuningdek, Amudaryo bo‘yiga kelganda Amir Temurning opasi Buxorodan yuborgan yordamni olishi ham tarixiy adabiyotlarda keltirib o‘tiladi [9, 56]. Bu Buxoroda mo‘g‘ullarga qarshi kuchli norozilik mavjudligini, aholi tabaqasidan qat‘iy nazar mamlakat tinchligi va osudaligi uchun kurashuvchi kishini qo‘llab-quvvatlashga tayyorligini ko‘rsatadi.

“Temur tuzuklari”da ham Amir Temurning Moxonda Alibek zindonida yotganligi, tutqunlikda qutilganidan keyin Buxoro tomonga yo‘l olgani va Buxoro atroflariga 200 odamini tarqatgani, xotini O‘ljoy turkon og‘oni ham Buxoro qishloqlaridan biriga yashirganligi, bundan tashqari 48 kun Samarqandda opasining uyida yashirilib yotgandan so‘ng, Samarqanddan qochib Xorazm tomonga yo‘l olishi va Achig‘i degan Amudaryo bo‘yidagi joyda Buxoroda qoldirgan odamlari kelganligi, ularning soni ming kishi ekanligiga oid ma‘lumotlar keltiriladi [11, 23-24]. Demak, Buxoro aholisi Amir Temurning mamlakatni birlashtirish, tashqi hujumlar, vayronagarchiliklarni tugatish uchun olib borayotgan kurashlarida doimiy ravishda uni qo‘llab-quvvatlaganlar. Amir



Temurning hokimiyat tepasiga kelishida buxoroliklarning ham ma'lum ma'noda hissasi mavjud deb aytish mumkin.

Mo'g'ullarni O'rta Osiyodan haydab chiqarish jarayoni so'nggi bosqichida sodir bo'lgan sarbadorlar qo'zg'oloni va keyinchalik ularning yetakchilari amir Husayn tomonidan qatl etilishi tarixiy manbalarda tilga olib o'tiladi. Amir Temurning qat'iy aralashuvi natijasida qo'zg'olonchi yetakchilardan Mavlonzodagina qutqarib qolingan bo'lib, akademik V.V. Bartold Abdurazzoq Samarqandiy ma'lumotlariga tayanib, uni Buxoro zodagonlaridan ekanligini ta'kidlab o'tgan [1, 371]. Amir Temurning yaqin kishilari, safdoshlari orasida buxoroliklar ham talaygina bo'lib, manbalarda Mahmudshoh Buxoriy, Ali Yasavuriy kabi sarkardalarining kelib chiqishi Buxorodan bo'lganligiga oid ma'lumotlar saqlanib qolingan. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asaridagi ma'lumotlarda, Amir Temurning hokimiyat uchun kurashlari davrida uning yaqin kishilari orasida Syurg'otmish O'g'lon, Dovudbek Dug'lat (Amir Temurning singlisi Qutlug' Turkon og'oning turmush o'rtog'i), Jaku Barlos, Muayyid Arlot (Amir Temurning singlisi Shirinbek og'aning turmush o'rtog'i, Sari Bug'a Jaloir, Bahodir Qipchoq, Oq Bug'alar qatorida Mahmudshoh Buxoriylar ham tilga olib o'tiladi. Shuningdek, Mahmudshoh Amir Husaynga qarshi kurashlar davrida Buxorodan soliq yig'ib olish uchun Amir Temur tomonidan yuborilganligi ham manbalarda qayd etib o'tilgan [5, 46-49]. Ammo, Muyiniddin Natanziyning yozishicha, Mahmudshoh Buxoroga kelgach, Yasovur qabilasiga tayanib, Amir Temurga to'plangan mablag'larni olib bormaydi. Qarshini amir Muso va amir O'ljoytular egallagandan so'ng Amir Temur Buxoroga yo'l oladi. Mahmudshoh Buxoriy va Ali Yasavuriylar uni yaxshi kutib oladi. Shunday bo'lsa-da, Amir Temurning hamrohlari ularga ishonmaydi. Abbas bahodir, Hoji Sayfiddinlar Amudaryodan o'tib, Moxon tomonga ketadilar. Biroz fursatdan so'ng Amir Temur ham ular oldiga yo'l oladi. Mahmudshoh va Ali Yasovuriylar ham kurashda mag'lub bo'lgach, ular ham Moxon tomonga Amir Temur huzuriga boradilar [7, 79].

Amir Husaynga sodiq amirlar tomonidan Buxoro qamal qilinish, Amir Temur tarafdorlari bilan janglar olib borilgan bo'lib, hiyla ishlatib Buxoro egallangan. Buxorodagi Amir Temurning tarafdorlari bo'lgan Ali Yasavuriy va Mahmudshohlar amir Husaynga qarshi kurashlarda mag'lubiyatga uchraganlaridan so'ng Amudaryodan o'tib, Moxonga Amir Temur huzuriga borganlar [5, 50]. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan Buxoro vohasi aholisi Amir Temurning mamlakatni birlashtiruv siyosatini qo'llab-quvvatlagan mazmundagi xulosaga kelish mumkin. Ayrim tarixiy adabiyotlarda Amir Temur Malikshoh Buxoriyni Qarshi jangida Amir Husaynga sadoqatli bo'lgan amir Musoni yengganidan keyin, Buxoro

solig'ini olib kelish uchun yuborganligi ham qayd etib o'tilgan [10, 123]. Tarixiy adabiyotlarda Buxoro uchun olib borilgan jang qayd etilmasa-da, Qarshida Amir Temurning g'alabasi o'z-o'zidan Buxoro boshqaruvining ham Amir Temurga o'tishini anglatishi keltirib o'tilgan [8, 429].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temurning mo'g'ullarga qarshi kurash jarayoni va Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish uchun kurashlari jarayonida Buxoro vohasi muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, ushbu tarixiy jarayonlarni manba va adabiyotlar tahlili orqali o'rganish bugungi tarix fani oldidagi ayrim muammoli masalalarga javob topishda yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Бартольд В.В. Сочинения. Том II. Часть 2. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. – М.: Наука, 1964.
2. Вамбери X. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Китобдан парчалар/Тўпл.: С.Аҳмад/. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.
3. Вульферт. Эм.Ф. Бухарская провинция в составе государства Амира Темура Маверауннахр в эпоху Амира Темура: археология, история, культура. – Т.: 2018.
4. Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. – Т.: Фан, 1994.
5. Шарафуддун Али Яздий. Зафаринома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад, X. Бобобеков; Масъул муҳаррир Б. Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шоғуломов па бошқалар// Т.: Шарк, 1997.
6. Лянглэ Л. Жизнь Тимура. Перевод с французского Н.Суворова. Типография Бр. - Т.: Порцевих, 1890.
7. Натанзий Муиниддин Мунтахаб ут-таворихи Муиний (Муиний тарихлари танланмаси)/ Муиниддин Натанзий; форс тилидан тарж., сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ф.Каримий; масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Т.: O'zbekiston, 2011.
8. Рунэ Груссе. Империя степей. История Центральной Азии. – М.: 2006.
9. Тамерлан – покоритель Азии. – М.: Ломоносов, 2014.
10. Тамерлан. – М.: Крафт, 2003.
11. Темур тузуклари. Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. ЎзФА мухбир аъсоси, тарих фанлари доктори, профессор Б.Аҳмедов таҳрири остида. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.
12. Ҳазрат Соҳибкирон солномаси/Тузувчи муаллиф Ҳаким Сатторий. – Т.: Tafakkur qanoti, 2014.

#### РЕЗЮМЕ

Quyidagi maqolada Amir Temur faoliyatining dastlabki davrlarida yuz bergan voqealarning Buxoro vohasiga bog'liq jihatleri o'rganilib tahlil qilingan. Shuningdek, o'sha davr siyosiy munosabatlarining ba'zi chigal masalalarining yechimlari tahlil qilingan.

#### РЕЗЮМЕ

В следующей статье изучаются и анализируются связанные с Бухарским оазисом аспекты событий, произошедших в ранние периоды деятельности Амира Темура. Также были проанализированы пути решения некоторых сложных вопросов политических отношений того времени.

#### SUMMARY

In the following article, the aspects related to the Bukhara oasis of the events that happened in the early periods of Amir Temur's activity are studied and analyzed. Also, the solutions to some complex issues of the political relations of that time were analyzed.